ASINXRON MOTORLARNING NOSIMMETRIK REJIMLARINI NAZORAT QILISH VA BOSHQARISH TIZIMLARI UCHUN EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR METODIKASINI ISHLAB CHIQUISH..... 1255

Tojimurodov Dilshodbek Dilmurodjon o'g'li

SOLIQ ORGANLARI VA SOLIQ TO'LOVCHILAR O'RTASIDAGI NIZOLARNI SUDGACHA HAL ETISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI 1263

Solihova Xumora Xasan qizi

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI



OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	1269
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARI MUVOFIQLIGI VA UNI BOSHQARISH	1274
Saidov Doniyor Abdullayevich	
AI-BASED AUTOMATED ASSESSMENT SYSTEMS AND THEIR ROLE IN EDUCATION QUALITY MONITORING: THE CASE OF UZBEKISTAN.....	1280
Majidova Yulduz, Janayev Bunyod, Choriyev Anvar, Mamatqulov Mavlon	
MAHALLIY BYUDJETLARDA SOLIQLARNI UNDIRISHNI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI	1286
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA XUSUSIYATLARI.....	1294
Murtazayev Olim, Norbekov Fazliddin Iskandar o'g'li	
SOLIQ NIZOLARINI MA'MURIY TARTIBDA KO'RIB CHIQISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1301
Solihova Xumora Xasan qizi	
KRIPTOAKTIVLAR VA MBRVNING MONETAR SIYOSAT TRANSMISSIYA MEXANIZMIGA TA'SIRI.....	1305
R.I. Rashidov, S.B.Eshmurodova	
"SMART TOURISM FAMILY ENTREPRENEURSHIP SYSTEM" MODELINING SINERGETIK SAMARADORLIGI VA TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI INVESTITSİYALAR BILAN TA'MINLASHDAGI IMKONIYATLARI.....	1310
Pardayeva Ozoda Mamayunusovna	
KORPORATIV KONFLIKTLARNI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	1318
Xolikova Saboxat Abdukarim qizi	
LONDON XALQARO MOLIYA MARKAZINING RIVOJLANISH OMILLARI VA RAQOBAT USTUNLIKLARI	1325
Alimardonov Elshod Dilshodovich	
XARID TURIZMI VA TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: O'ZBEKISTON VA QO'SHNI DAVLATLAR MISOLIDA.....	1332
Akmal Bakhromov	
AEROTROPOLIS KONSEPSIYASI ASOSIDA SAMARQAND XALQARO AEROPORTINI MINTAQAVIY TURISTIK HUB SIFATIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1338
Alisher Suyunov	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1345
Baxriddinov Sharofiddin	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ HISOBOTINI AVTOMATIK SHAKLLANTIRISHNING IQTISODIY VA IJTIMOİY AHAMIYATI	1352
Boymurotov Sodiq	
ESG-РЕЙТИНГОВЫЙ АНАЛИЗ ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ КОМПАНИЙ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.	1356
И. Р. Бердикулова	
МОДЕЛИРОВАНИЕ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ В ЦЕЛЯХ ОПТИМИЗАЦИИ ОПЕРАЦИОННЫХ РАСХОДОВ ДЛЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ.....	1360
Джуманов А.А.	
FERMER XO'JALIKLARIDA YER-SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1370
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОПТИМИЗАЦИИ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	1376
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	
TIJORAT BANKLARIDA OMONATLAR HAJMINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA ISTIQBOLLI PROGNOZLASH	1382



Raximov Shoxrux Furqatovich

TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUVISH RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI 1388

Xushvaqto'v Shuhrat Abduraufovich

MOLIYAVIY QAROR QABUL QILISHDA ZAMONAVIY USULLAR VA TEXNOLOGIYALAR 1393

Begalov Sherzod Maxsutaliyevich

O'ZBEKISTONDA MAJBURIY SUG'URTANING AHAMIYATI 1400

F. Sh. Hamrayeva

OLIV TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH: DAVLAT VA NODAVLAT OTM LARNING QIYOSIY TAHLILI 1405

Bozorov Alisher Ro'zimurodovich

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK DOIRASIDAGI LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI 1411

Sh. Qurbonova

HUDUDIV AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTITSION EHTIYOJLARNI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA) 1419

Maxamadiyev Turg'unbay Jumabayevich

HUDUDIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI INTEGRAL INDEKS ASOSIDA BAHOLASH VA DALILLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISH (BUXORO VILOYATI TUMANLARI MISOLIDA) 1424

Ergashev Sherali Erali o'g'li

TOURISM'S MACROECONOMIC CONTRIBUTION AND POST-PANDEMIC RESILIENCE: GDP AND EMPLOYMENT DYNAMICS, 2015-2025, WITH PROJECTIONS TO 2030 1428

B. Sobirov

MOLIYAVIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 1435

Tangriyeva Farida Abdulkarimovna

SUG'URTA KOMPANIYALARIDA INSURTECH YECHIMLARINI JORIY ETISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI 1439

Ashirov Jalil Baxridinovich

O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI 1445

Toxtasinova Dilbar Djalaldinovna, Egamova M.

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TASVIRLAR VA VIDEO LARGA ISHLOV BERISHDA SUN'IY NEYRON TARMOQLARI ARHITEKTURASINI MATEMATIK MODELASHTIRISH 1451

Jo'rayev Sherali Umarjonovich

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ: НАЦИОНАЛЬНЫЙ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ 1459

Хакимов Нодир Назарович

OLIV TA'LIM TIZIMIDA XALQAROLASHISH JARAYONINING KONSEPTUAL ASOSLARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI 1465

Jurayev Abror Turobovich

INSON KAPITALI REZILYENTLIGINI BAHOLASH: GLOBAL XATARLAR SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIV RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA 1470

Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY HISOBOTLARI SIFATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA NAZORAT QILISHNING KONSEPTUAL MODEL 1475

Lutfullayev Sardorbek Utkur o'g'li



UO'K: 657.6:004.9

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY HISOBOTLARI SIFATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA NAZORAT QILISHNING KONSEPTUAL MODEL

Lutfullayev Sardorbek Utkur o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchi

sardorlutfullayev07@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlari sifatini nazorat qilishda raqamli texnologiyalarni integrativ qo'llash muammosi tadqiq etilgan. XBRL formatining universal standartizatsiya vositasi, sun'iy intellekt asosidagi anomaliya aniqlash algoritmlari (Beneish M-Score, Altman Z-Score modifikatsiyalari) hamda blokcheyn texnologiyasining immutabillik funksiyalarini birlashtiruvchi konseptual model taklif etilgan. Tadqiqot xalqaro tajribaning komparativ tahlili va iqtisodiy-matematik modellashirish usullariga tayangan. 2025–2030 yillarga mo'ljallangan besh bosqichli yo'l xaritasi, «Hududgazta'minot» AJ uchun moslashtirilgan raqamlashtirish rejasi va iqtisodiy samaradorlik hisob-kitoblari asoslangan: hisobot tayyorlash muddati 100 kundan 18 kunga qisqarishi, aniqlik 70 foizdan 96 foizga oshishi prognoz qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, XBRL, sun'iy intellekt, blokcheyn, moliyaviy hisobot sifati, anomaliya aniqlash, MHXS, aksiyadorlik jamiyati.

Аннотация. В статье исследована проблема интегративного применения цифровых технологий в контроле качества финансовой отчётности акционерных обществ. Предложена концептуальная модель, объединяющая XBRL как универсальное средство стандартизации, алгоритмы выявления аномалий на основе искусственного интеллекта (модификации M-Score Бениша и Z-Score Альтмана) и функции иммутабельности технологии блокчейн. Исследование опирается на сравнительный анализ международного опыта и экономико-математическое моделирование. Обоснованы пятиэтапная дорожная карта на 2025–2030 годы, адаптированный план цифровизации для АО «Худудгазтаъминот» и расчёты экономической эффективности: прогнозируется сокращение срока подготовки отчётности со 100 до 18 дней и рост точности с 70 до 96 процентов.

Ключевые слова: цифровые технологии, XBRL, искусственный интеллект, блокчейн, качество финансовой отчётности, выявление аномалий, МСФО, акционерное общество.

Abstract. The article examines the integrative application of digital technologies in controlling the quality of financial statements of joint-stock companies. A conceptual model is proposed that combines XBRL as a universal standardisation tool, AI-based anomaly detection algorithms (modifications of the Beneish M-Score and Altman Z-Score) and the immutability functions of blockchain technology. The research relies on a comparative analysis of international experience and economic-mathematical modelling. A five-stage roadmap for 2025–2030, an adapted digitalisation plan for Hududgazta'minot JSC and economic efficiency calculations are substantiated: the reporting preparation period is projected to fall from 100 to 18 days and accuracy to rise from 70 to 96 percent.

Keywords: digital technologies, XBRL, artificial intelligence, blockchain, financial reporting quality, anomaly detection, IFRS, joint-stock company.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan raqamli transformatsiya moliyaviy hisobot va audit sohasini ham tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy nazorat usullari — hujjatlarni qo'lda tekshirish, tanlama tahlil va retrospektiv audit — axborot hajmining keskin o'sishi va hisobot foydalanuvchilari talablarining kuchayishi sharoitida o'z imkoniyatlarining chegarasiga yetdi. Zamonaviy javob raqamli texnologiyalarda mujassamlashgan: XBRL formati moliyaviy ma'lumotlarni mashina o'qiydigan standart ko'rinishga keltiradi, sun'iy intellekt millionlab amaliyotlar ichidan anomaliyalarni soniyalarda ajratadi, blokcheyn esa ma'lumotlarning o'zgarmasligini kriptografik jihatdan kafolatlaydi.

O'zbekistonda mazkur yo'nalish uchun zarur strategik asos yaratilgan: «Raqamli O'zbekiston — 2030»

strategiyasini tasdiqlagan Prezidentning 2020- yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan 2018-yil 21-noyabrdagi PF-5598-son Farmoni raqamlashtirishning ustuvor vazifalarini belgilab bergan. Biroq moliyaviy hisobot sifati nazoratida raqamli texnologiyalarni qo'llash darajasi hozircha past: dunyoning 60 dan ortiq yurisdiksiyasi XBRL formatini u yoki bu darajada qo'llayotgan bir paytda, O'zbekistonda mazkur format faqat ayrim jamiyatlarda tajriba tariqasida sinalmoqda, sun'iy intellekt va blokcheyn vositalari esa hisobot nazoratini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Muammoning yana bir muhim jihati — mavjud xorijiy yechimlarning fragmentarligidadir: XBRL, sun'iy intellekt va blokcheyn ko'pincha bir-biridan ajralgan holda, alohida loyihalar sifatida joriy etiladi, holbuki ularning haqiqiy samarasi aynan integrativ qo'llanilishda namoyon bo'ladi. Ma'lumotlar XBRL orqali standartlashmasa, sun'iy intellekt algoritmlari samarasiz ishlaydi; natijalar blokcheynda qayd etilmasa, ularning o'zgarmasligi kafolatlanmaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi — aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlari sifatini nazorat qilish jarayonida XBRL formatining universal standartizatsiya vositasi, sun'iy intellekt asosidagi anomaliya aniqlash algoritmlari (Beneish M-Score va Altman Z-Score modifikatsiyalari) hamda blokcheyn texnologiyasining immutabillik funksiyalarini integrativ qo'llashning konseptual modelini asoslashdan iborat. Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: har bir texnologiyaning hisobot sifati nazoratidagi funksional o'rnini aniqlash; texnologiyalarni integrativ birlashtiruvchi model arxitekturasini ishlab chiqish; joriy etishning bosqichli yo'l xaritasini shakllantirish; modelni «Hududgazta'minot» AJ sharoitiga moslashtirish hamda iqtisodiy samaradorlikni baholash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XBRL formatining moliyaviy hisobot sifatiga ta'siri xorijiy adabiyotda chuqur o'rganilgan. Ch. Xoffman — XBRL standartining yaratuvchilaridan biri — va M.M. Rodrigues moliyaviy hisobotlarni raqamlashtirishning XBRL yondashuvini tizimli bayon etganlar (Hoffman va Rodriguez, 2013). J.V. Kim, J.X. Lim va V.G. Noning empirik tadqiqoti majburiy XBRL hisobotining birinchi to'liqini joriy etilgan yurisdiksiyalarda axborot assimetriyasi sezilarli kamayganini va axborot muhiti yaxshilanganini ko'rsatgan (Kim va boshq., 2012). AQSH Qimmatli qog'ozlar komissiyasi 2009-yildan buyon qo'llab kelayotgan XBRL tizimining amaliy tajribasi rasmiy yo'riqnomalarda umumlashtirilgan (SEC, 2023); formatning global tarqalishi XBRL International hisobotlarida monitoring qilinadi (XBRL International, 2024).

Sun'iy intellektning auditga tatbiqi bo'yicha fundamental ishlar Ratgers maktabi olimlariga tegishli: T. Sun va M.A. Vasarxelyi chuqur o'rganish (Deep Learning) texnologiyalarining audit kelajagini qanday o'zgartirishini tahlil qilganlar (Sun va Vasarhelyi, 2017), H. Issa va hammualliflar esa auditda sun'iy intellektni qo'llashning tadqiqot dasturini tizimlashtirganlar (Issa va boshq., 2016). Anomaliya aniqlashning klassik asosi sifatida M.D. Beneishning sakkiz indikatorli M-Score modeli xizmat qiladi (Beneish, 1999). Amaliyot nuqtai nazaridan Deloitte hisoboti sun'iy intellekt vositalaridan foydalanuvchi auditorlik firmalarida audit sifati sezilarli yuqori ekanligini qayd etadi (Deloitte, 2024), PwC tadqiqoti esa raqamli vositalarning auditga bo'lgan jamoat ishonchiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi (PwC, 2024).

Blokcheyn texnologiyasining hisob va auditdagi istiqbollari D. Tapskott va A. Tapskott tomonidan keng yoritilgan (Tapskott va Tapskott, 2016); J. Day va M.A. Vasarxelyi blokcheyn asosidagi hisob va ishonch (assurance) tizimining nazariy modelini taklif etganlar (Dai va Vasarhelyi, 2017). Oshkoralik infratuzilmasining kapital bozori samaradorligiga ta'siri P.M. Xili va K.G. Palepuning fundamental ishida asoslangan (Healy va Palepu, 2001).

Milliy ilmiy adabiyotda raqamlashtirish muammolari faol o'rganilmoqda. A.A. Karimov raqamli texnologiyalardan unumli foydalanmaslik iqtisodiy rivojlanishning jiddiy cheklovchi omiliga aylanganini ta'kidlagan XBRL formatini joriy etish MHXSga o'tishdagi xatolarni sezilarli kamaytirishini asoslagan (Mamatov, 2023). B.Q. Hamdamov raqamli texnologiyalar orqali sifat nazoratini yaxshilash yo'nalishlarini (Hamdamov, 2023), B.A. Xasanov va B.Q. Hamdamov blokcheyn orqali ma'lumotlar ishonchligini ta'minlash istiqbollarini xalqaro amaliyotda blokcheynning auditda qo'llanilishini tadqiq etganlar mazkur texnologiyalarni milliy jamiyatlarga joriy etishga ustuvor e'tibor zarurligini (Dusmuratov, 2023), A.J. Tuychiyev hisobot standartlarini takomillashtirishda raqamli vositalarning o'rnini (Tuychiyev, 2021), Sh.I. Ilhomov va A.J. Tuychiyev esa MHXS asosidagi hisobot metodikasini (Ilhomov va Tuychiyev, 2023) rivojlantirganlar.

Adabiyotlar tahlili quyidagi ilmiy bo'shliqni aniqladi: xorijiy tadqiqotlar har bir texnologiyani alohida chuqur o'rgansada, ularni hisobot sifati nazoratining yagona konseptual modeliga birlashtirish masalasi kam ishlangan; milliy adabiyotda esa uchala texnologiyani O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari sharoitiga moslashtirilgan holda integrativ qo'llashning yaxlit modeli va yo'l xaritasi hozirga qadar taklif etilmagan. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot loyihaviy-konstruktiv dizayn asosida amalga oshirildi va to'rt izchil bosqichni qamrab oldi. Birinchi bosqichda kontent-tahlil va komparativ tahlil usullari yordamida XBRL, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining hisobot sifati nazoratidagi funksional imkoniyatlari hamda sakkiz mamlakat (AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Singapur, Germaniya, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston) tajribasi tizimlashtirildi. Ikkinchi bosqichda texnologiyalarning integrativ arxitekturasini loyihalandi va ularning ulushlari ekspertli baholash asosida aniqlandi. Uchinchi bosqichda ssenariyli modelashtirish orqali 2025–2030-yillarga mo'ljallangan yo'l xaritasi va kutilayotgan natijalar prognoz qilindi. To'rtinchi bosqichda investision tahlil usullari (qoplanish muddati, ROI, NPV, IRR) yordamida iqtisodiy samaradorlik hisoblandi.

Empirik baza sifatida XBRL International va IFRS Foundation rasmiy ma'lumotlari, SEC, Deloitte va PwC hisobotlari, Yagona korporativ axborot portalidagi aksiyadorlik jamiyatlari hisobotlari hamda «Hududgazta'minot» AJ rasmiy ma'lumotlari xizmat qildi. Keys-stadi strategiyasi doirasida modelning vertikal integratsiyalashgan infratuzilma kompaniyasiga tatbiq etilish xususiyatlari o'rganildi: jamiyatga Prezidentning PQ-4388-son Qarori bilan tabiiy gazni hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini (ASKUG) to'liq joriy etish vazifasi yuklatilgani raqamlashtirish uchun tabiiy infratuzuraviy asos yaratadi. Modelni loyihalashda texnologik izchillik tamoyili qo'llanildi: har bir keyingi texnologiya avvalgisining natijalariga tayanishi shart.

TAHLIL VA NATIJALAR

Taklif etilayotgan konseptual modelda har bir raqamli texnologiyaning sifat nazoratidagi ulushi uning funksional ahamiyatidan kelib chiqib belgilandi (1-rasm).



1-rasm. Konseptual modelda raqamli texnologiyalarning sifat nazoratidagi ulushi

Manba: muallif tomonidan taklif etilgan.

1-rasmdan ko'rinib turganidek, modelda eng katta ulush XBRL formatiga (35 foiz) berilgan, chunki u moliyaviy ma'lumotlarni xom ma'lumotlar darajasida standartlashtirib, qolgan texnologiyalarning ishlashi uchun fundamental infratuzilma yaratadi. Ikkinchi o'rinda sun'iy intellekt (30 foiz), so'ngra blokcheyn (20 foiz), katta ma'lumotlar (10 foiz) va bulutli texnologiyalar (5 foiz) turadi. Quyida uchala asosiy texnologiyaning modeldagi funksional o'rni izchil yoritiladi.


XBRL — moliyaviy va biznes ma'lumotlarni raqamli taqdim etish hamda almashishning xalqaro standarti bo'lib, har bir moliyaviy ko'rsatkichga semantik «teg»-identifikator beradi va ma'lumotlarning kompyuter dasturlari tomonidan avtomatik o'qilishini ta'minlaydi. Model doirasida XBRL to'rt bosqichli jarayonni qamrab oladi: taglash (semantik aniqlash), taksonomiya (MHXS bo'yicha unifikatsiya), avtomatik validatsiya hamda taqdim etish. Standartlashgan ma'lumotlar to'rt foydalanuvchi guruhiga xizmat qiladi: tahlilchilar (tezkor tahlil, mashina o'rganishi), davlat organlari (avtomatik nazorat), investorlar (real vaqtdagi ma'lumot) va auditorlar (audit dasturlari uchun ma'lumotlar bazasi). XBRL formatining an'anaviy hisobot formatlaridan afzalliklari 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. XBRL formatining an'anaviy hisobot formatlaridan farqlari

Ko'rsatkich	An'anaviy format (PDF, Excel)	XBRL formati	Samaradorlik o'sishi
Hisobot tayyorlash vaqti	100 kun	18 kun	5,5 baravar tez
Ma'lumot aniqligi	70%	96%	+26 foiz punkt
Tahlil vaqti	8–12 soat	5–15 daqiqa	30–60 baravar
Qiyoslash imkoniyati	Qo'lda	Avtomatik	Tizimli
Xatolar ulushi	32%	8%	–75%
Jahon standartiga moslik	Cheklangan	To'liq	100%
Yillik xarajatlar	100%	35%	–65%

Manba: xalqaro tajriba asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadvalda keltirilgan afzalliklar xalqaro amaliyotda empirik tasdiqlangan: majburiy XBRL hisoboti joriy etilgan yurisdiksiyalarda axborot assimetriyasi sezilarli kamaygan va kapital bozori samaradorligi oshgan (Kim va boshq., 2012). Biroq O'zbekistonning mazkur yo'nalishdagi mavqei hozircha past bo'lib, bu 2-rasmdagi qiyosiy ma'lumotlarda yaqqol ko'rinadi (2-rasm).



2-rasm. XBRL formatini joriy etish darajasi bo'yicha mamlakatlar qiyosi (2024 y.)

Manba: XBRL International va IFRS Foundation ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-rasmdan ko'rinib turganidek, XBRL qamrovi bo'yicha AQSH (100 foiz), Buyuk Britaniya (98 foiz), Yaponiya (95 foiz), Singapur (92 foiz) va Germaniya (88 foiz) yetakchi mavqeni egallaydi; Rossiya (72 foiz) va Qozog'iston (58 foiz) ham sezilarli natijalarga erishgan. O'zbekistonning ko'rsatkichi atigi 15 foizni tashkil etadi, bu qiyoslangan mamlakatlar orasida eng past daraja. Mazkur uzilish, bir tomondan, jiddiy muammo bo'lsa, ikkinchi tomondan, keyingi o'zlashtiruvchilik afzalligini beradi: mamlakatimiz yetakchi yurisdiksiyalarning sinalgan taksonomiyalari va tayyor dasturiy yechimlaridan foydalangan holda joriy etish xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Shu bois XBRL formatini joriy etish modelning birinchi ustuvor vazifasi sifatida belgilanadi.

Sun'iy intellekt modelda to'rt yo'nalishda qo'llaniladi: anomaliya aniqlash (Beneish M-Score, Altman Z-Score va Jons modeli modifikatsiyalari orqali manipulyasiya alomatlarini topish); tasnif va klasterlash (jamiyatlarni xatarlar, sektorlar va sifat toifalari bo'yicha avtomatik ajratish); matniy-semantik tahlil (NLP orqali izohlar sifatini baholash) hamda bashoratli modellar (moliyaviy ahvol va xatarlarni prognozlash). Muhim jihat shundaki, Beneish M-Score kabi klassik modellar XBRL ma'lumotlari asosida to'liq avtomatik hisoblanishi mumkin — bu ikki texnologiyaning integrativ bog'liqligini ko'rsatadi. Modelda qo'llaniladigan asosiy AI vositalari 2-jadvalda tizimlashtirilgan (2-jadval).

2-jadval. Moliyaviy hisobot sifati nazoratida qo'llaniladigan AI vositalari

№	Vosita	Texnologik asos	Qo'llanilishi	Samara
1	Beneish M-Score AI	Mashina o'rganishi + 8 nisbat	Manipulyasiyani aniqlash (95% gacha)	Yuqori
2	Anomaliya topuvchi	Isolation Forest	Noodatiy amaliyotlarni ajratish	Yuqori
3	NLP tahlilchisi	Natural Language Processing	Izohlar sifatini baholash	O'rta-yuqori
4	Klasterlash dasturi	K-means, DBSCAN	AJlarni toifalash	O'rta



№	Vosita	Texnologik asos	Qo'llanilishi	Samara
5	Bashoratli model	LSTM, Random Forest	Moliyaviy ahvolni prognozlash	Yuqori
6	RPA audit roboti	Robotic Process Automation	Takrorlanuvchi amaliyotlar	Juda yuqori
7	Intellectual yordamchi	Katta til modellari	Tushuntirish va maslahat	O'rta

Manba: xalqaro tajriba asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadvalda keltirilgan vositalar jahonning yetakchi auditorlik firmalari amaliyotida sinalgan: AI vositalaridan foydalanuvchi firmalarda audit sifati 35 foizga yuqori ko'rsatkichlarga ega (Deloitte, 2024). Modellashtirish natijalariga ko'ra, AI-auditor yordamchi majmuasining joriy etilishi audit jarayonini 5–7 baravar tezlashtiradi va kamchiliklarni aniqlash darajasini an'anaviy usuldagi 65 foizdan 95 foizga yetkazadi. Dastlabki bosqichda BENEYSH M-Score AI va RPA vositalarini tajriba tariqasida joriy etish maqsadga muvofiq (Dusmuratov, 2023).


Blokcheyn modelda ma'lumotlar o'zgarmasligining kafolati vazifasini bajaradi. Moliyaviy ma'lumotlar zanjirli-izchil bog'lanadi: birlamchi hujjatlar (1-blok) → hisob amaliyotlari (2-blok) → MHXSga transformatsiya (3-blok) → moliyaviy hisobot (4-blok) → audit xulosasi (5-blok). Har bir blok SHA-256 kriptografik xeshi orqali avvalgi blok bilan bog'langan bo'lib, ma'lumotlar bir marta yozilgandan keyin o'zgartirilishi mumkin emas — aynan shu immutabilitet xususiyati audit izining to'liqligini va hisobot tarixining ishonchligini ta'minlaydi (Dai va Vasarhelyi, 2017). Natijada har bir hisobot ko'rsatkichining kelib chiqishini birlamchi hujjatgacha avtomatik kuzatish mumkin bo'ladi, bu esa tekshiriluvchanlik mezonini sifat jihatdan yangi darajaga ko'taradi.

Uchala texnologiyaning integrativ qo'llanilishi yaxlit nazorat zanjirini hosil qiladi: XBRL ma'lumotlarni standartlashtiradi va mashina o'qiydigan holatga keltiradi; sun'iy intellekt standartlashgan ma'lumotlar oqimida anomalialarni real vaqtda aniqlaydi; blokcheyn esa ham birlamchi ma'lumotlar, ham nazorat natijalarining o'zgarmasligini kafolatlaydi. Mazkur izchillikni hisobga olgan holda joriy etishning besh bosqichli yo'l xaritasi ishlab chiqildi (3-jadval, 3-rasm).

3-jadval. Raqamli texnologiyalarni joriy etishning bosqichma-bosqich rejasi (2025–2030 yy.)

Yil	Bosqich	Joriy etiladigan texnologiya	Qamrov (AJ soni)	Kutilayotgan sifat balli
2025	Tayyorgarlik	Normativ baza, milliy taksonomiya, kadrlar	—	55
2026	XBRL joriy etish	XBRL — bank sektori va yirik AJlar	60 ta	65
2027	AI joriy etish	AI-audit, NLP, anomalni aniqlash	120 ta	73
2028	Blokcheyn	Tajriba sektorlar, smart contracts	150 ta	78
2030	Integrativ tizim	Barcha texnologiyalar, to'liq qamrov	235 ta (100%)	85

Manba: muallif tomonidan taklif etilgan.



3-rasm. Yo'l xaritasi bo'yicha kutilayotgan sifat balli va qamrov trayektoriyasi (2025–2030 yy.)

Manba: 3-jadval ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3-jadval va 3-rasmdan ko'rinib turganidek, yo'l xaritasi bosqichma-bosqich evolyusion yondashuvga asoslangan: har bir bosqichda bitta texnologiya ustuvor joriy etiladi va keyingi bosqich uchun asos yaratiladi. Natijada moliyaviy hisobot o'rtacha sifat balli 2025-yildagi 55 balldan 2030-yilda 85 ballga yetadi, qamrov esa 235 ta jamiyatni to'liq o'z ichiga oladi. Bunday bosqichli yondashuv eng samarali natijalarni berishi xalqaro amaliyotda tasdiqlangan (PwC, 2024).

Keys-stadi doirasida model «Hududgazta'minot» AJ sharoitiga moslashtirildi. PQ-4388-son Qaror bilan jamiyat zimmasiga yuklatilgan ASKUG tizimini to'liq joriy etish vazifasi raqamlashtirish uchun tabiiy poydevor yaratadi: avtomatlashtirilgan o'lchash ma'lumotlari birlamchi hisob ma'lumotlarining ob'yektiv manbai bo'lib xizmat qiladi. Jamiyat uchun moslashtirilgan raqamlashtirish yo'l xaritasi 4-jadvalda keltirilgan (4-jadval).

4-jadval. «Hududgazta'minot» AJda hisobot sifatini raqamlashtirish yo'l xaritasi

Yo'nalish	Muddati	Mazmuni	Kutilayotgan samara
ASKUG—hisob integratsiyasi	2026–2027 yy.	Avtomatlashtirilgan o'lchash ma'lumotlarini hisob dasturiga bevosita uzatish	Qo'lda kiritish xatolarining kamayishi
Tuzilmalangan hisobot (XBRL)	2027–2028 yy.	Yillik hisobotni tuzilmalangan raqamli formatda taqdim etish	Tekshiriluvchanlik va taqqoslanuvchanlikning oshishi
Tahliliy nazorat vositalari	2028–2029 yy.	Hududiy korxonalar ma'lumotlaridagi nomuvofiqliklarni avtomatik aniqlash	Preventiv nazoratga o'tish
Yagona elektron hujjat aylanmasi	2029–2030 yy.	Birlamchi hujjatlar elektron arxivi va o'zgarishlar tarixi	Audit izining to'liqligi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4-jadvalda keltirilgan yo'l xaritasining muhim metodik xususiyati — bosqichlarning qat'iy izchilligidir: ishonchli boshlang'ich ma'lumotlarsiz (ASKUG integratsiyasi) tuzilmalangan hisobotning qiymati cheklangan bo'ladi, tuzilmalangan ma'lumotlarsiz esa tahliliy algoritmlar samarasiz ishlaydi. Shu bois har bir bosqich yakunida erishilgan natija keyingi bosqichga o'tish sharti sifatida baholanishi lozim. Jamiyatning 14 ta hududiy korxonasi kesimidagi ma'lumotlar oqimini raqamlashtirish konsolidatsiyalashgan hisobot sifatini belgilovchi eng zaif bo'g'in — bo'linmalararo tabaqalanish — muammosini ham yechishga xizmat qiladi.

Modelning iqtisodiy samaradorligi investision tahlil usullari yordamida baholandi. Tizimning boshlang'ich xarajatlari 35 mlrd so'mni tashkil etadi: XBRL platforma — 8 mlrd, AI-audit tizimi — 12 mlrd, blokcheyn infratuzilmasi — 6 mlrd, kadrlar tayyorlash — 4 mlrd va boshqa xarajatlar — 5 mlrd so'm. Yillik iqtisodiy foyda esa 118 mlrd so'mga baholanadi: audit xarajatlarning 65 foizga kamayishi (25 mlrd), xatolar tufayli yo'qotishlarning qisqarishi (18 mlrd), kapitalni qo'shimcha jalb etish samarasi (45 mlrd), kadrlar tejami (8 mlrd) hamda qarz stavkasining pasayishi (22 mlrd so'm). Natijada investisiyaning qoplanish muddati 4 oyni, besh yillik ROI 1586 foizni, o'n yillik NPV (12 foiz diskont stavkasida) 633 mlrd so'mni, IRR esa 337 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkichlar loyihaning yuqori investision jozibadorligidan dalolat beradi; bunday iqtisodiy samaradorlik islohotlarning asosiy rag'batlantiruvchi omili hisoblanadi (Pardae, 2024).

Integrativ modelning hisobot sifatiga ta'siri MHXS Konseptual asoslaridagi olti sifat xususiyati kesimida yaqqol namoyon bo'ladi. XBRL formati taqqoslanuvchanlik (yagona taksonomiya orqali barcha jamiyatlarda ma'lumotlarining avtomatik qiyoslanishi) va o'z vaqtidalik (hisobot tayyorlash muddatining 100 kundan 18 kunga qisqarishi) mezonlarini bevosita kuchaytiradi. Sun'iy intellekt ishonchli taqdim etish (manipulyasiyalarni 95 foizgacha aniqlash) va munosiblik (bashoratli modellar orqali axborotning prognostik qiymatini oshirish) mezonlariga xizmat qiladi. Blokcheyn tekshiriluvchanlik mezonini sifat jihatdan yangi darajaga ko'taradi: har bir ko'rsatkichning birlamchi hujjatgacha bo'lgan izi o'zgarish zanjirida saqlanadi. NLP vositalari esa izohlar sifatini baholash orqali tushunarlilik mezonini qo'llab-quvvatlaydi. Shu tariqa raqamli model sifatning barcha olti mezonini bir vaqtda qamrab oluvchi yagona texnologik platforma vazifasini bajaradi.

Modelning institusional boshqaruvi masalasida quyidagi taqsimot taklif etiladi. Kapital bozorini rivojlantirish agentligi raqamli platformaning markaziy operatori sifatida milliy XBRL taksonomiyasini yuritadi va jamiyatlardan tuzilmalangan hisobotlarni qabul qiladi. Moliya vazirligi taksonomiyaning MHXS yangilanishlariga muvofiqligini ta'minlaydi, Markaziy bank banklar uchun ixtisoslashgan taksonomiya modulini yuritadi, Auditorlar palatasi esa AI-audit vositalaridan foydalanish bo'yicha kasbiy standartlar va malaka talablarini ishlab chiqadi. Bunday taqsimot raqamli tizimni ilgari taklif etilgan tashqi nazorat infratuzilmasi bilan yagona institusional konturga birlashtiradi: tuzilmalangan XBRL ma'lumotlari balli baholashning ob'yektiv manbaiga aylanadi, AI vositalari baholash jarayonini avtomatlashtiradi, blokcheyn esa baholash natijalarining o'zgarishligini kafolatlaydi.

Joriy etish strategiyasini shakllantirishda qo'shni mamlakatlar tajribasi alohida amaliy qiymatga ega. Rossiyada Markaziy bank 2018 yildan boshlab moliya bozori ishtirokchilari uchun XBRL formatidagi hisobotni bosqichma-bosqich majburiy qilib joriy etdi va bunda aynan tartibga soluvchi organing o'zi taksonomiyaning



ishlab chiqib, bozor ishtirokchilariga tayyor dasturiy vositalarni taqdim etdi — bu yondashuv joriy etish qarshiligini sezilarli kamaytirdi. Qozog'istonda esa joriy etish birja listingidagi yirik emitentlardan boshlanib, keyinchalik kengaytirildi. Ikkala tajriba ham O'zbekiston uchun muhim saboq beradi: birinchidan, tashabbus va metodik ta'minot tartibga soluvchi organ zimmasida bo'lishi lozim; ikkinchidan, majburiylik bosqichma-bosqich, bozorning tayyorgarlik darajasiga mos ravishda joriy etilishi kerak. Ayni shu tamoyillar taklif etilayotgan yo'l xaritasining asosiga qo'yilgan.

Shu bilan birga, modelning xatarlari va cheklovlarini xolis e'tirof etish zarur. Birinchidan, sun'iy intellekt algoritmlari sifatli yoki noto'liq ma'lumotlar asosida noto'g'ri signallar berishi mumkin — shu bois AI xulosalari yakuniy qaror emas, balki auditor e'tiborini yo'naltiruvchi dastlabki skrining sifatida qaralishi lozim. Ikkinchidan, blokcheyn ma'lumotlarning o'zgarmasligini kafolatlasada, dastlab kiritilgan ma'lumotning to'g'riligini kafolatlamaydi — bu muammo birlamchi hujjatlashtirish nazorati bilan birgalikda hal etiladi. Uchinchidan, texnologiyalarni joriy etish kadrlar salohiyatiga yuqori talab qo'yadi, shu bois oliy ta'lim muassasalarida raqamli audit yo'nalishida mutaxassislar tayyorlash va amaldagi buxgalter-auditorlarni qayta malakalashtirish modelning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlari sifatini nazorat qilishda XBRL, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini integrativ qo'llashning konseptual modeli asoslandi. Asosiy ilmiy-amaliy natijalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, har bir texnologiyaning modeldagi funksional o'rni va ulushi aniqlandi: XBRL (35 foiz) — ma'lumotlarni standartlashtiruvchi fundamental infratuzilma; sun'iy intellekt (30 foiz) — anomaliyalarni real vaqtda aniqlovchi tahliliy qatlam; blokcheyn (20 foiz) — ma'lumotlar o'zgarmasligining kriptografik kafolati; katta ma'lumotlar (10 foiz) va bulutli texnologiyalar (5 foiz) — qo'llab-quvvatlovchi muhit. Texnologiyalarning integrativ bog'liqligi — XBRLsiz AI samarasiz, blokcheynsiz natijalar kafolatsiz — modelning asosiy konstruktiv tamoyili sifatida belgilandi.

Ikkinchidan, 2025–2030-yillarga mo'ljallangan besh bosqichli yo'l xaritasi ishlab chiqildi: tayyorgarlik (normativ baza, milliy taksonomiya, kadrlar) — XBRL (bank sektori va yirik jamiyatlar) — sun'iy intellekt (AI-audit, NLP) — blokcheyn (tajriba sektorlar) — integrativ tizim (barcha 235 ta jamiyat). Natijada hisobot sifat balli 55 dan 85 gacha oshishi prognoz qilinadi.

Uchinchidan, model «Hududgazta'minot» AJ sharoitiga moslashtirilib, ASKUG–hisob integratsiyasidan yagona elektron hujjat aylanmasigacha bo'lgan to'rt yo'nalishli izchil raqamlashtirish rejasi taklif etildi. To'rtinchidan, iqtisodiy samaradorlik hisob-kitoblari loyihaning yuqori jozibadorligini ko'rsatdi: 35 mlrd so'm boshlang'ich xarajatga nisbatan 118 mlrd so'm yillik foyda, 4 oylik qoplanish muddati va 633 mlrd so'mlik o'n yillik NPV.

Amaliyotga joriy etish yuzasidan quyidagilar tavsiya etiladi: XBRL, sun'iy intellekt va blokcheynning hisobot nazoratida qo'llanilishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish; MHXSga mos milliy XBRL taksonomiyasini ishlab chiqish; bank sektorida pilot loyihalarni ishga tushirish; oliy ta'lim muassasalarida raqamli audit mutaxassislarini tayyorlash va amaldagi kadrlarni qayta malakalashtirish; XBRL International, IFRS Foundation va Jahon banki bilan xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda raqamli vositalar samaradorligini har yili tizimli baholab borish. Kelgusi tadqiqotlar yo'nalishi sifatida integrativ modelning balli baholash tizimi va shaffoflik xaritasi bilan texnik uyg'unlashuvi hamda katta til modellarning izohlar sifatini baholashdagi imkoniyatlarini chuqur o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.
2. Beneish, M.D. (1999). The Detection of Earnings Manipulation. *Financial Analysts Journal*, 55(5), pp. 24–36.
3. Avlokulov A.Z. Moliyaviy natijalar auditi sifatini oshirish masalalari. «Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2015 yil
4. Matkarimov D.M. Moliyaviy hisobot axborotining sifati va samaradorligini oshirishda xarajatlarni kompleks baholash tizimining o'rni. «Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2015 yil 3 www.iqtisodiyot.uz
5. Пресняков, С.В. О критериях качества в бухгалтерском учете и аудите [Электронный ресурс] / С.В. Пресняков. – Режим доступа: http://saldo.ru/article.ru.htmlpub_id=3779
6. IFRS Foundation (2018). Conceptual Framework for Financial Reporting. London: IFRS Foundation, pp. 18–22.
7. PCAOB (2024). Annual Report 2023. Washington: Public Company Accounting Oversight Board, pp. 28–32.
8. Sarbanes-Oxley Act of 2002. Public Law 107-204, 116 Stat. 745, Section 404.



9. Tournon, P. (2005). The Adoption of US GAAP by French Firms before the Creation of the International Accounting Standard Committee. *International Journal of Accounting*, 40(1), pp. 17–37.

10. World Bank (2022). Report on the Observance of Standards and Codes (ROSC) – Uzbekistan. Washington: World Bank, pp. 38–44.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100